O‘SMIRLIK INQIROZI DAVRIDA “MEN” KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH MUAMMOLARI

Shukriddinova Munisa Kamoliddin qizi
Parkent tumani MMTBga qarashli
4-maktabning amaliyotchi psixologi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20280235

Annotatsiya:
Ushbu maqolada o‘smirlik davridagi inqirozli holatlarning shaxs rivojlanishiga ta’siri, xususan, "Men" konsepsiyasining tarkib topishi va o‘z-o‘zini baholashning barqarorlashuvi masalalari tahlil qilinadi. O‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixofiziologik o‘zgarishlarning bolaning o‘zini anglash jarayoniga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, maqolada o‘smirlarda uchraydigan adekvat va noadekvat o‘z-o‘zini baholashning kelib chiqish sabablari hamda ularni korreksiya qilish bo‘yicha psixologik tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: O‘smirlik inqirozi, "Men" konsepsiyasi, o‘z-o‘zini baholash, identifikatsiya, refleksiya, shaxsiyat rivojlanishi, kognitiv jarayonlar, psixologik korreksiya.

Kirish

Shaxs rivojlanishining ontogenez bosqichlari orasida o‘smirlik davri eng murakkab va kritik davr hisoblanadi. Psixologiya fanida ushbu davr "o‘tish davri", "inqiroz davri" yoki "ikkinchi tug‘ilish" kabi nomlar bilan yuritiladi. L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, o‘smirlik inqirozi — bu bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni va uning ichki imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasidir. Bu davrda bola o‘zini bolalikdan ajratishga va kattalar dunyosiga integratsiya(jipslashish) bo‘lishga intiladi. Ushbu jarayonning markazida esa "Men" konsepsiyasining shakllanishi va o‘z-o‘zini baholash tizimining qayta ko‘rib chiqilishi yotadi.

Asosiy qism

O‘smirlik inqirozini tushunish uchun avval bitta oddiy haqiqatni tasavvur qilaylik: O‘smirlik — bu bolalik kiyimi tor kelib qolgan, lekin kattalar kiyimi hali katta kelayotgan davri. Agar o‘smirlik inqirozi bo‘lmasa, bola shaxs sifatida o‘smay qoladi O‘smirlik inqirozi aslida shaxsiyatning inqirozi (destruction) emas, balki uning transformatsiyasidir. Bu davrda kuzatiladigan emotsional beqarorlik va nizolar aslida bolaning bolalik ijtimoiy rivojlanish vaziyatidan kattalar ijtimoiy munosabatlariga o‘tayotganidan dalolat beruvchi progressiv ko‘rsatkichlardir.Bu davrda kechadigan “Men” konsepsiyasi o’zi nima? "Men" konsepsiyasi — bu o‘smirning o‘zi haqida chizgan "ichki portreti". Bu “portretda” Real "Men" (hozirgi holati) va Ideal "Men" (bo‘lishni xohlagan holati) o‘rtasida kurash ketadi.Ya’ni bola o‘zini juda kuchli, kelajakda mashhur kasb egasidek tasavvur qiladi (Ideal "Men"). Lekin ayni damda uning bilim salohiyati, harakati va oilaviy muhit bunga munosib emas , bu vaziyatda bolaning tasavvuridagi "buyuk inson" bilan kundalik hayotdagi "oddiy o‘quvchi" to‘qnash keladi. Agar bu farq juda katta bo‘lsa, bolada o‘zidan norozilik, jahldorlik va inqiroz boshlanadi.”Men konsepsiyasi o’smirlikda juda beqaror bo’ladi, inson yosh o‘tgan sayin "Men" konsepsiyasi yanada barqarorlashadi, lekin hayotiy tajribalar, muvaffaqiyatlar va omadsizliklar uni doimiy ravishda takomillashtirib turadi.Inqirozning asosiy muammosi — "Real Men" va "Ideal Men" o‘rtasidagi farqning keskinlashuvidir. Agar bu masofa juda katta bo‘lsa, o‘smirda o‘zidan qoniqmaslik va ichki nizolar yuzaga keladi.O‘smirlik inqirozi davrida “Real Men” va “Ideal Men”o‘rtasidagi farqning keskinlashuvi o‘z-o‘zini

baholashning bolalikdagi subyektiv shaklidan, shaxsiy va ongli shakliga o‘tishiga turtki bo‘ladi. Aynan shu ichki nizo (konflikt) o‘smirni o‘z shaxsiyatini qayta baholashga va o‘zligini qidirishga majbur qiladi."Bu keskinlashish holatida o‘smir o‘ziga savol beradi: "Men nima uchun orzumdagi odam emasman?". Mana shu savol tug‘ilgan soniyadan boshlab o‘z-o‘zini baholash boshlanadi. Ya’ni, o‘smir endi o‘zini shunchaki "boricha" qabul qilmaydi, balki "Ideal Men" tarozi pallasiga qo‘yib tortib ko‘radi.O‘z-o‘zini baholash — o‘smirning o‘z imkoniyatlari, fazilatlari va kamchiliklariga bergan qiymatidir. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini baholash o‘ta beqaror bo‘ladi.O‘z-o‘zini baholash — "Men" konsepsiyasining hissiy-qiymatli markazi. Agar bu markaz sog‘lom bo‘lsa, u butun shaxsiyatni barqaror qiladi.O‘z-o‘zini baholashni to‘g‘ri yo‘naltirish o‘smirlik davridagi bolaga nafaqat ijobiy, balki fundamental ta’sir ko‘rsatadi va uning butun kelajak hayotiga poydevor bo‘ladi.Shu sababli o‘smirlik inqirozini samarali boshqarish va "Men" konsepsiyasini sog‘lom shakllantirish lozim.O’smirda refleksiyani rivojlantirish,o’smirga o‘z tuyg‘ularini tahlil qilishni o‘rgatish zarur. "Bugun nima uchun xafa bo‘ldim?", "Menga nima yoqadi?" kabi savollar orqali u o‘zligini anglay boshlaydi.Maktab psixologlari tomonidan kasb-hunarga yo’naltirish ishlari ham kelajakka ma’lum bir maqsad bo’lsa,uning identifikatsiya inqirozi osonroq yechiladi.Bundan tashqari "Men va mening olamim", "O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish" kabi treninglar o‘smirda adekvat baholashni shakllantiradi. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘smirning shaxsini emas, balki uning aniq bir xatti-harakatini baholashlari kerak. Tanqid o‘rniga qo‘llab-quvvatlash "Men" konsepsiyasini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.Shaxsga yo‘naltirilgan baholash "Men" konsepsiyasini jarohatlaydi (men yomonman, men dangasaman). Harakatga yo‘naltirilgan baholash esa o‘z-o‘zini baholashni adekvat (to‘g‘ri) saqlab qoladi va bolaga rivojlanish uchun yo‘l ko‘rsatadi.Masalan,o’smir muloqot jarayonida yolg’on gairdi,ota-ona esa shaxsni baholasb: "Sen muttahamsan, yolg‘onchisan! Senga hech qachon ishonib bo‘lmaydi" desa,bola u o‘zini "yolg‘onchi" deb qabul qiladi va bu rolni ijro etishda davom etaveradi. Ushbu vaziyatda to’gri yo’l bolaga "Sening bu vaziyatda haqiqatni yashirganing meni juda ranjitdi. Ishonchimizga putur yetdi. Keling, nega bunday qilganingni va vaziyatni qanday tuzatishni gaplashib olamiz" degan so’zlar orqali yechim topish. Bunda bola o‘zini "yomon odam" deb emas, balki "yomon ish qilgan odam" deb his qiladi va bu ishni qaytarmaslikka harakat qiladi.Ota-onalar bolalarining kichik muvaffaqiyatini ham e’tirof etishi bolada samosenkasi ortishiga va o’smirlik inqirozi muammolarni oldini olishga ham yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik inqirozi — bu shaxsning yangi sifat bosqichiga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan jarayondir. "Men" konsepsiyasining murakkablashishi va o‘z-o‘zini baholashning o‘zgarishi o‘smirga o‘zining ijtimoiy va shaxsiy o‘rnini topishga yordam beradi. Psixolog,ota-ona va pedagoglarning vazifasi — bu inqirozni buzuvchi (destruktiv) emas, balki yaratuvchi (konstruktiv) yo‘nalishga burish, o‘smirda o‘ziga bo‘lgan ijobiy va barqaror munosabatni shakllantirishdir. O‘smirlik inqirozi muammolarining asosiy yechimi — o‘smirga o‘z-o‘zini anglash (refleksiya) uchun imkoniyat yaratish va uning atrofida xavfsiz, qabul qiluvchi muhitni shakllantirishdir. Adekvat o‘z-o‘zini baholash — bu o‘smirning mukammal bo‘lishi emas, balki o‘zining kamchiliklari bilan birga o‘ziga xos ekanligini anglashidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vigotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya". – T.: O‘qituvchi, 2010.
2. Erikson E. "Identichnost: yunost i krizis". – M.: Progress, 2006.
3. G‘oziyev E.G‘. "Psixologiya (yosh davrlari psixologiyasi)". – T.: 2002.
4. Rogers C. "On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy". – 1961.